

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komisiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

4.2022

**научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2022

MEXANIKA

Norkulav Bezzod Eshmirzayevich, Xidirov San'at Kuchkarovich, Nazarova Shohida Murotboy qizi
(TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti), Kubonov Azizali Ilxomovich (TIQXMMI Milliy tadqiqot
universiteti huzuridagi Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti),

Kubonov Azamat Ilxom o'g'li (Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti)
**NASOS STANSIYALARINING ISH REJIMINI INOBATGA OLIB, SUV OLIB KELISH
KANALINING GIDRAVLIK PARAMETRLARINI BAHOLASH**

Annotatsiya. Maqolada nasos stansiyalarining avankameralariga cho'kindi oqimining dinamikasi o'rghanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan, nasos stansiyasining ishonchliligi va ish rejimiga ta'sir qiluvchi loyqalanishning jadalligi aniqlanib, uning samardorligi oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Suv olib kelish kanali suv o'tkazish qobiliyatini oshirish va minimal miqdordagi cho'kindi hajmi bilan kafolatlangan suv oqimini nasos stansiyaga ta'minlashda oqimning gidravlik parametrlari baholangan. Qarshi magistral kanali nasos stansiyasining suv olib kelish bo'lib, olib borilgan dala tadqiqotlari natijalarini orqali uning o'tkazuvchanlik holatini baholash ushbu ishning maqsadi hisoblanadi.

Аннотация. В статье изучена динамика поступления наносов в аванкамеры насосных станций, выявлена интенсивность зашлени, влияющая на надежность и режим работы насосной станции, а также разработаны рекомендации по повышению ее эффективности. Гидравлические параметры потока оценивались при увеличении водопропускной способности русла канала и обеспечении гарантированного расхода воды на насосную станцию при минимальном количестве наносов. Целью данной работы является оценка состояния его водопропускной способности по результатам натурных исследований, представляющих собой подачу воды от насосной станции Кариинского магистрального канала.

Annotation. The article studied the dynamics of sediment inflow into the fore chambers of pumping stations, revealed the intensity of silting, which affects the reliability and operation of the pumping station, and developed recommendations for improving its efficiency. The hydraulic parameters of the flow were evaluated by increasing the culvert capacity of the canal bed and ensuring a guaranteed water flow to the pumping station with a minimum amount of sediment. The purpose of this work is to assess the state of its culvert capacity based on the results of field studies, which represent the water supply from the pumping station of the Karshi main canal.

Kalit so'zlar: nasoslar, nasos stansiyasi, gidravlik parametrlar, suvni sarflash, suv oqimi.

Ключевые слова: насосы, насосная станция, гидравлические параметры, расход воды, поток воды.

Key words: pumps, pumping station, hydralic parametres, water consumption, water flow.

Kirish. Nasos stansiyalarining ish rejimining oqimning dinamikasi va gidrodinamik xususiyatlariga ta'sirini bashorat qilish kanal gidravlikasining eng muhim vazifalaridan biridir. Nasos stansiyasining samardorligini oshirish va nasos agregatlarining abraziv yemirilishini kamaytirish, nasos stansiyasiga kafolatlangan suv hajmini ta'minlash va suv olib kelish kanalining kirish qismidagi oqimni barqarorlashtirish alohida ahamiyatga ega. Ko'pgina mamlakatlarda nasos stansiyalarini ishonchli ishlashni ta'minlashga, nasos stansiyalarining old kameralariga kafolatlangan suv olib bilan kamroq cho'kindilarning kirib kelishiga alohida e'tibor beriladi. Nasos stansiyalarining avankameralariga cho'kindi oqimining dinamikasini o'rghanish bo'yicha tadqiqotlar olib borish, nasos stansiyasining ishonchliligi va ish rejimiga ta'sir qiluvchi loyqalanishning jadalligi aniqlash orqali uning samardorligi oshirish mumkin. Suv olib kelish kanali suv o'tkazish qobiliyatini oshirish va minimal miqdordagi cho'kindi hajmi bilan kafolatlangan suv oqими ni nasos stansiyaga ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish nasos stansiyalarining ekspluatasiya xizmatlarining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Nasos stansiyasiga suv yetkazib berish grafigini o'zgartirish, suv olib kelish kanalidagi gidravlik va allyuvial oqim rejimlarini o'zgarishi o'zan jarayonining tabiiy yo'nalishini sezilarli darajada o'zgartiradi. O'zan jarayonlarining bu o'zgarishini bashorat qilish va dinamikasini baxolash muhim hisoblanadi. Shu sababli nasos stansiyalarining suv olib kelish kanalidagi o'zan jarayonlari nazariyasini o'rghanish va ishlab chiqish muammosi, kanalning suv o'tkazuvchanligiga ta'sir ko'rsatishi doimo ko'plab olimlarning e'tiborini tortdi. Biroq ushbu muammoga bag'ishlangan ko'plab ishlarga qaramay, uning yechimi hali ham amalda tugallanmagan. Buning sababi nasos stansiyasining suv olib kelish kanalida vaqt ichida so-


dir bo‘ladigan o‘zan jarayonlarining murakkabligi va ko‘p omilli xususiyatidir. Bundan tashqari, tadqiqot obyektiga suv Amudaryodan kiradi, uning suv oqimi cho‘kindilarning yuqori darajada to‘yinganligi bilan tavsiflanadi.

Ushbu tadqiqot yuqorida qayd etilgan nasos stansiyalarini rejimi muammolarini hal qilishga bag‘ishlanganligi sababli, uning dolzarbligi, shubhasiz. Tadqiqot obyekti Qarshi magistral kanali – KMK-dagi nasos stansiyasining suv olib kelish kanali bo‘lib, bu yerda yuqorida qayd etilgan ekspluatatsion muammolar mavjud. Tadqiqot ishi davomida dala tadqiqotlari natijalarini va nasos stansiyasining suv olib kelish kanalidagi o‘zan jarayonlarining dinamikasini tahlil qilish, olingan natijalar asosida nasos stansiyasining ishslash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Tadqiqot metodi. Qarshi magistral kanali kaskadi nasos stansiyasining suv olib kelish kanalida olib borilgan dala tadqiqotlari natijalarini o‘rganish va uning o‘tkazuvchanlik holatini baholash ushbu ishni metodikasi hisoblanadi.

Natijalar va muhokamalar. Kanal o‘zanidagi o‘zan jarayonlari jadalligi uning o‘tkazuvchanligining pasayishiga olib keladi va shu bilan nasos stansiyasining old kamerasiga kerakli hajmdagi suv oqimini ta’minlay olmaydi. Tadqiqot obyektidagi kuchli abraziv yemirilishlar nasos stansiyasining nasos aggregatlari ekspluatatsiyasiga qilishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv olib keluvchi kanalda tindirgichlar mavjud bo‘lib, u sezilarli darajada cho‘kindilarga to‘lib qolish natijasida uning hajmi yiliga 4,5 – 5 million m³ ga oshadi. Qarshi magistral kanalining 1-nasos stansiyasi kuchli zo‘riqish rejimda ishlaydi.


Loyqa cho‘kindilarining kirib kelishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar kanalning kirish qismida va tindirgichda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, kanalning suv o‘tkazuvchanligi qobiliyati pasa-yadi va vegetatsiya davrida talab qilinadigan suv oqimini o‘tkazishga imkon bermaydi. Suv olishning bosh qismiga ko‘p miqdorda o‘zan tubi oqiziqlari va muallaq oqiziqlarning katta fraksiyalari kirib kelishi tufayli 1-nasos stansiyasiga suv olib kelish kanalining butun uchastkasida cho‘kindilar tashiladi, ularning bir qismi tranzit sifatida tashiladi. Yildan yilga to‘planib boruvchi loyqa cho‘kindilar hajmlar tufayli kanal tubi ko‘tariladi kanalning gidravlik parametrlari o‘zgaradi. Masalan, 2014-yilda bosh suv olish joyiga yaqinlashishi tufayli tub cho‘kindilarning kirib kelishi bir yarim barobar oshadi. Suv olib kelish kanalining bo‘ylama kesimi tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, kanalning holati qoniqarsiz holatda. Noqulay sharoitlarda, ya’ni kam suv davrlarida daryordan suv olib kelish kanaliga orqali suv olishda 1-nasos stansiyasi tomonidan 70 – 75 m³/s suv sarfiga ega bo‘lgan ikkita aggregatdan foydalilanadi. 3-agregatni ishlatish imkonsiz bo‘lib qoladi, chunki bu holda birinchi nasos stansiyasining avankamerasidagi suv satxi farqi keskin oshadi va kavitsiya hodisasi boshlanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston sug‘oriladigan maydonlariga KMK orqali suv olish uchun kafolatlangan suv sarfini ta’minalash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurdir.



Suv olib kelish kanalining kirish qismidagi zemsnaryadlarning ishlashi ma’lum davrlarida kanalda-
gi va tindirgichdagи tozalash ishlari loyiha darajasigacha olib keltirolmaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek,
kam suvli davrda loyqa cho‘kindilar miqdori, bir vaqtning o‘zida, ishlaydigan nasos aggregatlari sonini
cheklanishiga olib keladi. Masalan, suv ko‘p bo‘lgan yillarda bahor va yoz oylarida suv sathining ko‘tar-

lishi va daryo o‘zanida suv oqimining oshishi 4–5 nasos agregati, ba’zan esa 6 ta nasos stansiyasining ishlashi uchun sharoitlar yaratilgan. Faqtgina Tolimarjon suv omborini to‘ldirish uchun agregat ulangan.

Suv olib kelish kanali suv sarfini aniqlash bo‘yicha olib borilgan dala tadqiqot natijalari va so‘nggi 3 yillik olingan ma’lumotlar quyidagilarni ko‘rsatdi:



1-rasm. 2019 –2021-yillardagi suv sarflari.

Kanalning maksimal oqim sarfi 3 yil davomida – $195 \frac{m^3}{c}$ ni tashkil etgan, o‘rtacha yillik sarf $120 \frac{m^3}{c} \div 150 \frac{m^3}{c}$ bo‘lgan, minimal oqim sarfi – $45 \frac{m^3}{c}$ ni tashkil etgan.

O‘lchanan ma’lumotlar ko‘rinib turibди, suv sarfi kanalda mart-aprel oyalarida ko‘tarilib boradi, suv kam bo‘lgan yillarda may oyida ayrim vaktlarda iyun oyida suv sarfi ko‘tarilib boradi.

Ta’kidlash lozimki, kanalda oqimning o‘rtacha tezligi o‘zandan o‘tadigan ushbu zamin gruntu uchun yo‘l qo‘yiladigan yuvilmas tezlikdan bir necha marotaba katta bo‘lsa-da, sezilarli chuqurlik bo‘yicha deformatsiyalar sodir bo‘lmaydi. Buning sababini kanalda oqimni loyqa oqiziqlar bilan yuqori darajada bo‘lganligi bilan asoslash mumkin. Bu sohada muallaqlashgan va o‘zan tubi bo‘ylab sirpanib harakatlanuvchi nanoslarning fraksion tarkibi ham fikrimiz asosliligini ko‘rsatadi (1-jadval).

Tadqiqot obyektida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun ushbu ish mualliflari suv olib kelish kanallarini tindirgichlarini tartibga solishning o‘zgartirilgan konstruksiyasini taklif qilishdi. Yangi sxemaning qo‘llanilishi Qarshi magistral kanali nasos stansiyalarining suv olib kelish kanallarining suv o‘tkazuvchanligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, tindirgichlar va suv olib kelish kanallarini tozalash samaradorligini oshirish imkoniyati yaratadi.

I-jadval


KMK 1-nasos stansiyasiga suv olib kelish kanalidagi muallaq oqiziqlarning fraksion tarkibi

Namuna olingan kun	Namuna olish joyi	Fraksion tarkibi, %			
		Loyli <0,005 mm	Changli 0,005- 0,05 mm	Qumli 0,05– 0,25 mm	>0,25 mm
15.08.2021	KirishPK 0+00	21,57	41,20	34,52	1,31
15.08.2021	PK 7+64	24,30	50,00	25,45	0,35
16.08.2021	PK 13+80	33,06	51,43	15,33	0,18
1.09.2021	PK 200	30,41	66,00	3,44	0,15
15.08.2021	Kirish PK 0+00	14,8	39,60	38,84	6,84
15.08.2021	PK 7+64	22,36	43,78	27,56	0,30
16.08.2021	PK 13+80	29,34	63,34	8,14	0,18
1.09.2021	PK 200	36,04	41,75	21,82	0,39
15.08.2021	Kirish PK 0+00	18,54	38,72	42,26	0,48
15.08.2021	PK 7+64	30,40	65,80	2,92	0,88
16.08.2021	PK 13+80	2,87	5,62	70,90	0,51
1.09.2021	PK 200	32,00	64,29	3,11	0,60

Taklif etilayotgan tindirgichning kameralar soni 3 ta bo‘lib, ko‘pincha, bitta kamerada Q=50 – 60 m³/s oqim sarfiga ega bo‘lishi mumkin deb belgilandi, garchi ba’zida bu suvs sarfi katta bo‘lsa ham.

Tindirgichning turi, shuningdek, uning kameralarining soni tindirgich turli xil variantlarini solishitirish, mahalliy topografik, gidrologik va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda bilan belgilanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib mualliflar tomonidan Turkmaniston hududida geodezik va gidrometrik o‘lchov ishlarini olib borildi. KMK suv olish kanalining gidravlik parametrlerini ishlab chiqishda topografik xaritalar, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, Arc Gis dasturlari va daryoda o‘lchangan ma’lumotlardan foydalanildi (2-rasm).



2-rasm. Maxsus geoaxborot tizimlari dasturlari yordamida aniqlangan tindirgichning joylashgan hududning topografik xaritasi.




3-rasm. Turkmaniston hududi. Qarshi magistral kanalida o‘lchov ishlarini.

Dala tadqiqotlari va o‘lchov ishlari natijalari bo‘yicha KMK suv olib kelish kanalida uch kamerali tindirgichning gidravlik hisobi olib borildi. Taklif qilayotgan uch kamerali tindirgichda kamerasing kengligi oqimga qarab kamayishi lozimligi, aks holda, kamerada oldi qismida cho‘kma paydo bo‘lishi asoslandi (3-rasm). Tindirgichning ish rejimi davomida ikkita kameraning ishlashi vaqtida bitta kamerani yuvish mumkin bo‘ladi.

$$Q_{\text{тингидир}} = q_{\text{иш}} + Q_{\text{юв}} \quad \text{м}^3/\text{с}$$

бу ерда: $q_{\text{иш}}$ – ishchi suv sarfi, $Q_{\text{юв}}$ – yuvish suv sarfi



4-rasm. Pastki qiyalikli uch kamerali tindirgich konstruksiyasi.

1-suv olib kelish kanali; 2-avankamerasi; 3-tindirgich; 4–5-zatvorlar; 6-yuvish galereyasi.

2-jadval

Cho‘kindilarining turli fraksiyalari uchun tindirgichning uzunligini aniqlash

$d, \text{мм}$	$w' = w_0 \text{ м/с}$	$h_1, \text{м}$	$l = (h_1 * g) / w', \text{м}$	$S = (1.2-1.5) h_1 * g / w', \text{м}$
0.25	0.00195	3.3	423	508
0.15	0.0007	3.3	1178	1414
0.03	0.00031	3.3	2661	3193
0.005	0.00023	3.3	3586	4300

Hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra, tindirgichning uzunligini 4300 m tavsiya qilish mumkin (4-rasm). Agar cho‘ktiruvchining bu uzunligi kuzatilsa, nasos stansiyasining oldingi kameralariga kirishdan oldin oqimning maksimal aniqlanishi ta’milnadi.

Tindirgichni loyqa cho‘kindilar vaqtini t_0 loyqa cho‘kindini qatlam bo‘ylab yig‘ish yo‘li bilan hisoblash tavsiya etiladi. Ba’zan cho‘kish vaqtি butun o‘lik hajmini maksimal loyqa cho‘kindilar bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi va hisoblash faqat cho‘kindi bo‘lgan fraksiyalar bilan cho‘kishi uchun amalgा oshiriladi.

Bir tindirgich uchun loyqalanish vaqtini aniqladik.

$$t_0 = \frac{V_{\text{тингидир}} \cdot \rho_t}{a \cdot Q_{\text{ишчи}} \cdot 86400} = \frac{2057550 \cdot 2650}{4 \cdot 50 \cdot 86400} \approx 315 \text{ кун}$$

bu yerda: ρ – cho‘kindilarining zinchligi $\rho = 2650 \text{ кг/м}^3$; $a_{\text{тп}}$ – о‘rtacha loyqalik chuqurligi, Amudaryo uchun $4 - 5 \text{ кг/м}^3$.

$V_{\text{тингидир}}$ bir kamera uchun tindirgich hajmi

$$V_{\text{тингидир}} = \omega_{\text{тингидир}} \cdot S = 478.5 \cdot 4300 = 2057550 \text{ м}^3$$

$\omega_{\text{тингидир}}$ tindirgichning bo‘sh maydoni, м^2

$$\omega_{\text{тингидир}} = \frac{B + b}{2} \cdot h_1 = \frac{150 + 140}{2} \cdot 3.3 = 478.5 \text{ м}^2$$

b – tindirgichning pastki kengligi, м

Tadqiqotlar o‘tkazish davomida tavsiya qilinayotgan tindirgichning joylashish o‘rni topografik xaritalar va geodezik o‘lchovlar asosida olindi.

Xulosa va tavsiyalar. Qarshi magistral kanali nasos stansiyasining suv olib kelish kanalida olib borilgan dala tadqiqotlari natijalarini orqali uning o'tkazuvchanlik holatini baholash asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Yil davomidagi zemsnaryadlarni ishlatish amaliyoti bo'yicha kuzatuv ishlarini, bajargan ish hajmlarini aniqlash, nasos stansiyalarini ishlash samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha o'lchov ishlari olib borildi. To'plangan ma'lumotlar va olib borilgan dala tadqiqotlariga asoslanib, magistral kanalning bosh qismi sohasidagi o'zan o'zgarishi jarayonlari bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot va nasos stansiyasi agregatlarini ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

2. Qarshi magistral kanali nasos stansiyasi agregatlarini ishlatish samaradorligini oshirishda kanalning parametrlarini o'zgartirish orkali erishish metodi ishlab chiqildi. KMK tindirgichni yangi konstruksion parametrlari ishlab chiqish orkali nasos agregatlarini ishlash samaradorligi 12% oshishi asosladi.

3. Loyqa cho'kindilar QMK kirish kanaliga kirishini kamaytirish va nanoslarni ushlab qolishda tindirgichlarning optimal konstruktiv yechimlari berildi. Shuningdek, zemsnaryadlarni tindirgichda joylashtirish o'rni va vaqt, shuningdek, quyqani tashlash nuqtalari belgilab berildi.

4. Qarshi magistral kanali 1-sonli nasos stansiyasiga suv olib kelish kanalida PKlar bo'yicha sodir bo'layotgan o'zan jarayonlari va ularning oldini olish, bo'lish tavsiyalar ishlab chiqildi.

5. Tindirgichning yangi sxemasining qo'llanilishi Qarshi magistral kanali nasos stansiyalarining suv olib kelish kanallarining suv o'tkazuvchanligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, tindirgichlar va suv olib kelish kanallarini tozalash samaradorligini oshirish imkoniyati yaratadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Абидов М.М. Регулирование наносного режима при водозаборе на горно-предгорных участках рек. Дис. канд. техн. наук, М., 2006, 199 с.
2. Базаров Д.Р. Научное обоснование новых численных методов расчета русловых деформаций рек, русла которых сложены легкоразмываемыми грунтами, Дис. на соискание уч. степени д. т.н., М., 2000, 249 с.
3. Базаров Д.Р., Норкулов.Б.Э, Жумабаева Г.У, Артикбаева Ф.К, Пулатов С.М, Особенности гидрологических характеристик среднего течения реки Амударья. "Аграрная Наука" научно-теоретический и производственный журнал. №6, Москва. 2019,
4. Базаров Д.Р., Норкулов Б., Рузимухамметова Д.М, Изменение гидрологического режима реки при бесплотинном водозаборе. Архитектура. Строительство, Дизайн. № 4, 2011, с. 39 – 41.
5. Д.Э.Махмудова, Х.М.Дурдиев Р.А.Эрманов. К выбору нового устойчивого бесплотинного водозабора из р. Амударья для обеспечения надежного водообеспечения южных регионов Узбекистана. Режим доступа <http://mail.icwc-aryl.littel.uz/library/rus/hist/sb-tr-saniiri-1984/pages/056.htm>
6. Кловский А.К. Совершенствование конструкций бесплотинных водозaborных гидроузлов с донными циркуляционными порогами на малых горных реках. Автореферат на соискание ученой степени кандидата технических наук, Москва, 2015, с. 155.
7. Мухамедов Я.С. Регулирование русла и режима наносов Амудары у бесплотинных водозаборов руслорегулировочными сооружениями. Режим доступа. <http://mail.icwc-aryl.littel.uz/library/rus/hist/sb-tr-saniiri-1984/pages/056.htm>
8. Мухамедов Я.С. Эксплуатация Каршинского магистрального канала при водозаборе из р. Амудары и пути его улучшения. Режим доступа: http://www.cawater-info.net/library/rus/mukha_medov1.pdf
9. Шульц В.Л. Реки Средней Азии (текст). В 2 ч. Глав. упр. гидрометеорол. службы при Совете Министров СССР, Среднеаз. науч.-исслед. гидрометеорол. ин-т., 2-е изд., перераб. Ленинград, Гидрометеоиздат, 1963.
10. Bazarov D., Norkulov B., Vokhidov O., Uljaev F., Ishankulov Z. Two-dimensional flow movement in the area of protective regulatory structures. STCCE-2020. Materials Science and Engineering. doi: 10.1088/1757-899X/890/1/01216
11. Krutov A., Bazarov D., Norkulov B., Obidov B., Nazarov B. 2019 Experience of employment of computational models for water quality modelling. E3S Web of Conferences. EDP. Sciences. doi: 10.1051/e3sconf/20199705030